



<https://interscience.uz/>
ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)
SJIF: 3.805 (2021)

2023/7

TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



| | |
|--|-----|
| Ganjiev F. F. Socio-psychological determinants of the state of aggressiveness and autoaggressiveness in adolescents | 241 |
| Ikramova Sh. B. Harbiy xizmatchilar oilasida ota va bola munosabatlarining xususiyatlari | 249 |
| Jabborov X. X. Yoshlar milliy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlarning ijtimoiy-psixologik omillari | 255 |
| Madgafurova D. O., Yoqubjonov Z. O'smir yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari | 263 |
| Mannabova E'. B. Hayotiy bardoshlilik — psixologik fenomen sifatida | 270 |
| Mirzayeva S. R. Oilaviy munosabatlarni ijtimoiy psixologik omillari | 276 |
| Насимджанова М.М. Роль школы в развитие процесса инкультурации личности | 281 |
| Нурымбетова Э. Ж. Ителлектуальные особенности студентов-психологов | 286 |
| Nishanov S.Y. Sudda hukm chiqarish va uning psixologik jihatlari | 293 |
| Norbosheva M. Bola shaxsi va xulq-atvori shakllanishida muloqotning ahamiyati | 298 |
| Nurmatov N. N. Yosh rahbarlarda qaror qabul qilishning ijtimoiy - psixologik qirralari | 304 |
| Omonov Sh. I. Iqtisodiy psixologiya tarixi va uni o'rghanishning hozirgi zamon muammolari | 309 |
| Пак В. В. Перфекционизм как черта личности влияющая на достижение цели | 314 |
| Turaqulov L. T. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvida axloqiy tarbiyaning o'rni. | 323 |
| Ulug'ova Sh. M. Zamonaviy tadbirkorlar xulqining moslashuvchanligiga etnomadaniy qadriyatlar ta'siri | 329 |
| Xasanova Sh. J. Inson psixik taraqqiyoti determinatsiyasi | 336 |
| Yuldasheva D. Sh. O'quv motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik, psixologik xususiyatlari | 338 |
| 347 Yuldasheva G. O'. Iqtisodiy xulq-atvorning moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonidagi o'rni va o'ziga xos jihatlari. | 342 |
| Ядгарова Г.Т Психологические основы образовательного процесса | 347 |
| IQTISODIYOT | |
| Shirinova N. B. O'zbekistonda soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari | 351 |



SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE STATE OF AGGRESSIVENESS AND AUTOAGGRESSIVENESS IN ADOLESCENTS

Ganjiev Feruz Furqatovich

Doctor of philosophy in psychological sciences (PhD), docent Bukhara State University

Annotation: this article reflects on the socio-psychological determinants and specificity of aggressive and autoaggressive adolescents ' underlying structure. In the article, all foreign and domestic psychologists created so far serve as a scientific basis for the scientific approaches, theoretical views, conceptual developments of researchers on aggressiveness behavior, the methodological aspect of our work.

Keywords: forensic psychologist expert, socio-psychological competence, forensic psychological expertise, professional competence, competence, emotional intelligence, professional activity.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ СОСТОЯНИЯ АГРЕССИВНОСТИ И АУТОАГРЕССИВНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Ганджиев Феруз Фурқатович,

Доктор философии по психологическим наукам (PhD), доцент
Бухарский государственный университет

Аннотация: в этой статье рассматриваются социально-психологические детерминанты и идентичность агрессивных и аутоагрессивных подростков в их основной структуре. В статье представлены научные подходы, теоретические взгляды, концептуальные разработки всех зарубежных и отечественных исследователей-психологов на агрессивное поведение, созданные до сих пор, которые служат научной основой для методологического аспекта нашей работы.

Ключевые слова: судебный психолог, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая компетентность, профессиональная компетентность, компетентность, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

O'SMIRLARDA AGRESSIV VA AUTOAGRESSIVLIK HOLATINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Ganjiev Feruz Furqatovich,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada agressiv va autoagressiv o'smirlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari va o'ziga xosligi uning tuzilmasi haqida fikr yuritilgan. Maqolada, hozirga qadar yaratilgan barcha xorijiy



va mahalliy psixolog tadqiqotchilarining agressivlik xulqqa oid ilmiy yondashuvlari, nazariy qarashlari, kontseptual ishlanmalari, mazkur ishimizning metodologik jihatni uchun ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsiyal intellekt, kasbiy faoliyat.

KIRISH. Hozirgi kunda jahon miqyosida shaxsda agressiv va autoagressiv holatlarning ijtimoiy-psixologik determinantlarining diagnostikasi va korreksiyasini amalga oshirishning psixologik usullarini takomillashtirish hamda dunyo miqyosida bu holatlarni baholash dasturlari keng joriy etilgan va ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Ta'lim subyektlarining intellektual, kasbiy va guruhiy ishslash imkoniyatlarini tizimli o'rghanishning ijtimoiy-psixologik innovatsion loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni Respublikamizning istiqbolli ta'lim dasturlaiga mos integratsiya qilish zarurati jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Jumladan, Bolonya Deklaratsiyasi, Evropa Kengashi mamlakatlarining 2020 yilga qadar ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash sohasidagi Hamkorlik strategiyasi, Oliy kasbiy ta'lim muassasalari Yevropa assotsiatsiyasi EURASHE, ENIC-NARIC axborot-tizim markazi, Ta'lim sohasidagi xalqaro tashkilot Education International hujjatlarida nafaqat bilim olish huquqini kafolatlash, balki shaxs ma'naviy yuksalashining diagnostik yo'nalishlari bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirmoqda.

Globallashuv davrida avtoagressiyaning o'smirlar hayotida namoyon bo'lishi sof antropologik va psixologik hodisa bo'lib, muayyan ma'noda bu hodisaning keng tarqalganligi butun jamiyatning holatini, uning axloqiy salomatligini aks ettiradi. O'z joniga qasd qilishlar sonining ko'payishi o'smirlarda avtoagressiyaning ekstremal ko'rinishi sifatida bugungi kunda butun dunyoda va mamlakatimizda ham kuzatilmoqda. Avtoagressiya bu jismoniy va ruhiy sohalarda o'ziga zarar yetkazishga qaratilgan qasddan qilingan faoliyat. O'zini ayplash, o'zini kamsitish, o'z joniga qasd qilish, zavq olishdan bosh tortish, ehtiyojni qondirish kabi turli darajadagi tan jarohati yetkazishda namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtida voyaga yetmaganlarda avtoagressiya fenomenini chuqur o'rghanish zarur. O'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga to'sqinlik qiladigan sharoitlarni hisobga olgan holda, ularning buzz'unchi xatti-harakatlarini zamonaviy voqeliklar kontekstida tushunish kerak. Avtoagressiya va ijtimoiy-psixologik moslashuv muammosi bir qator tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlarda o'rganilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Bugungi kunda autoagressiv xatti-harakatlarning umumiyligi psixologik modellarini aniqlash va autoagressiv xatti-harakatlarga moyil bo'lgan o'smirlarning shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish vazifasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shunday qilib, o'smirlarning autoagressiv xulq-atvori va ijtimoiy-psixologik moslashuv o'rtasidagi munosabatlarni o'rghanish umumiyligi psixologik bilimlarning manfaatlari va zamonaviy jamiyat ehtiyojlari bilan

bog'liq. Shu sababli, mavjud ishlanmalarga asoslanib, o'smir shaxsining moslashuv jarayonining psixologik determinantlari va xususiyatlarini o'rganish kerak, bu esa o'z vaqtida autoagressiv tendentsiyalarning rivojlanishining oldini olishga imkon beradi.

Ushbu maqolada asosan autoagressiv xulq-atvorning paydo bo'lishining zaruriy shartlarini ko'rib chiqamiz, uning o'ta og'irligi, o'smirlarning o'z joniga qasd qilish xatti-harakati farqini hisobga olgan holdagi terminologiyadir.

Dunyoda autoagressiv xulq-atvor 19-asr oxiridan 20-asr boshlarida qadar o'rganila boshlandi. Yoshlar o'rtasidagi autoagressiv xulq-atvor muammosiga bag'ishlangan juda ko'p miqdordagi xorijiy va mahalliy ishlarga qaramay, mamlakatimizda ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy statistik tadqiqotlar kam. Asosan, faqat namunaviy statistik ma'lumotlar mavjud. Biz hali ham yoshlarining o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining haqiqiy darajasini va shakllarini bilmaymiz. O'z joniga qasd qilishning jinsi va yoshi prognozlarini mintaqaviy kontekstni hisobga olgan holda tahlil qilish va tushuntirish kerak. Shu bilan birga, vaziyatni tahlil qilish o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining maxsus, «ichki» shakli sifatida «auto-agressiv tendentsiyalar» miqyosini baholamasdan bo'lmaydi.

O'smirlilik davrida o'z joniga qasd qilishga urinishlar ko'p, asosan bu namoyishkorona autoagressiv urinishlardir. Tajribani mustahkamlash bilan bunday urinishlar takrorlanishi mumkin. Ko'pincha o'smirlarda impulsiv tarzda sodir bo'ladi. O'smir ko'pincha o'z ehtiyojlarini qondirish uchun har to'siq tufayli stress va tajovuz tufayli o'z joniga qasd qilishga urinishadi.

O'smirlarda o'z joniga qasd qilish holatlari ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatilmoqda. D.Friman (1987) ma'lumotlariga ko'ra, o'z joniga qasd qilish 15 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan amerikalik o'smirlar va yoshlar orasida o'limning uchinchi (baxtsiz hodisalar va qotillikkardan keyin) sababidir. So'nggi o'n yilliklarda mamlakatimizda 10-14 va 15-19 yosh o'smirlarda o'z joniga qasd qilish darajasi 14 foizda va 17 foizga oshdi. Xuddi shu tendentsiya Markaziy Osiyoda, shuningdek bir qator boshqa mamlakatlarda ham kuzatilmoqda.

Agressivva autoagressivo'smirlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari muammosining umumiyyihatlari T.N.Safanova, M.V.Bashkin, Z.A.Zimeleeva, O.V.Bubnovskaya, A.A.Bukina, L.F.Burlachuk, N.B.Burtovaya, I.O.Denisov, Ye.E.Efimova, S.M.Emelyanov, D.V.Ivchenko, L.V.Malikov, M.A.Isaevalar o'z asarlarida agressiv xulq namoyon bo'lishining psixologik jihatlari, nizolarga sabab bo'luvchi munosabatlар, agressiv xulq nazariyalari, yosh mutaxassislarining ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalarni tadqiq etishgan.

NATIJALAR. Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristikalaridan biri tajovuzlikdir. Hozirgi kunda insonlarda kuzatilayotgan tajovuzkor holatlarni namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorni oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini o'rganish psixologlar uchun dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda ota-onalar bilan suhbatlashsangiz, ularning aksariyati farzandlar bilan



ayniqsa, talabalik yosh davridagi o'spirinlar bilan muomala munosabatlarida bo'lish murakkablashib borayotganligini ta'kidlaydilar.

Bugungi kunda talabalarning ijtimoiy moslashmaganligi muammosi dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ayniqsa bu omil agressiv o'spirinlar sonini ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bizga ma'lumki, inson odobli yoki odobsiz, olyijanob yoki egoist, jinoyatchi yoki sog'lom xulqli shaxs bo'lib dunyoga kelmaydi. Insonning turli mazmundagi xulq-atvor xususiyatlari va uning ustanovkalar shuningdek, uning ijtimoiy hayot faoliyati, shaxsni o'rab turgan obyektiv shart-sharoitlar va voqe-hodisalarin ta'siri asosida yuzaga keladi. Mazkur shart-sharoitlar va obyektiv munosabatlar xarakteri individning shaxs sifatida shakllanishiga keng xizmat qiladi. Bu unsurlar ijtimoiy turmush shart-sharoitlari oxir-oqibat natijada inson xulq-atvorining o'ziga xos shakllarini ta'minlab beradi.

Shunday ekan, bu masalalarini yaxshilash, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va shu orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol insonlar bo'lib, shakllanishini ta'minlash har bir oila a'zosining, mahalla ko'yning, rahbariyatning, keng jamoatchilikning asosiy va muhim vazifasi bo'lmog'i darkordir.

O'smirlik mohiyatan ong egasi, u aql yo'rig'i bilan ish tutadigan davr hisoblanadi. Uning boshqalardan farqi ham ana shundadir. Demak shaxsning xatti - harakati, xulq-atvori, insonlarga munosabati, vazifasi va burchini anglash darajasi ham ong mahsuli sanaladi. Ong fe'l-atvorimiz doirasida namoyon bo'ladi va aqlimiz darajasini belgilaydi. O'smirga doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristikalaridan biri agressiv va avtoageressivlikdir. Bugungi kunda o'smirlarda kuzatilayotgan agressiv holatlarni namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, autoagressiv xulq-atvorni oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini o'rganish tadqiqotchlar uchun dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

Maqolada belgilanadigan munosabatlarni aks ettiruvchi mazkur diagnostik baholarning nisbiyligi asosiy masaladir. Nuqtayi-nazarimizcha zaruriyatday tuyuladigan narsa boshqa bir inson uchun nafaqat foyda, balki zararli deb hisoblanishi mumkin, bir madaniyatda ma'qul sanalgan narsa boshqa bir madaniyatda noma'kuldek e'tirof etilishi mumkin. Agressivlik ijtimoiy-psixologik holat sifatida norma hamda qoidalarni buzish, yon atrofimizdagilarga zarar va azob-uqubat keltirish deb qaraladi. Shu o'rinda instrumental hamda g'araz bilan qilingan, oldindan rejalshtirilgan, tajovuzkorlik tiplari ham mavjud. O'smir boshqa birov unga nisbatan hujum qilish yoki salbiy istagidaligini bilsa, birinchi navbatda g'arazli maqsad, dushmanlik holatini o'ziga qanchalik darajada tegishli ekanligini hal qilib olishi lozimdir. Umuman agressivlikning boshlanishida faqatgina, boshqa bir inson dushmanlik maqsadidagi, hatto subyekt hujum qilmagan bo'lsa-da, bu haqdagi bilim unga yetarli asos bo'lishi kuzatiladi.

Ushbu qisqacha tahlildan ko'ramizki, o'smirlar o'rtasida agressiv va

autoagressiv xulq-atvor muammosi butun dunyoda mavjud. Bu yana bir bor muammoning jiddiyligini va o'smirlar o'rtasida autoagressiv xatti-harakatlar tendentsiyalarini o'rganish zarurligini tavsiflaydi. Autoagressiya hodisalariga o'zini asossiz xavf-xatarga duchor qilish istagi (ekstremal), xavfli vaziyatlarni qidirish, o'ziga zarar yetkazadigan sevimli mashg'ulotlari (giyohvandlik, mastlik) kabi yashirin shakllar ham bo'lishi mumkin.

O'smirlik davrida agressiv va autoagressiv holatlarning ijtimoiy-psixologik determinantlarida shaxs xususiyatlari muhim o'rinni egallaydi biz buni quyidagi jadvalimizda ham ko'rishimiz mumkin.

1.1-jadval

Agressivlik va shaxs xususiyatlari so'rovnomasini natijalarining o'zaro aloqasi

| Omillar | Agressivlikva autoagressivlik | O'smirlarning emotsiyal holatlarda o'zini nazorat qilishi | Faoliyatda o'zini nazorat qilish | Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishi |
|---|-------------------------------|---|----------------------------------|--|
| Jahildorlik | 0,483* | 0,225** | 0,622** | 0,171 |
| Tashqi ta'sirlarsiz paydo bo'ladigan agressivlik va autoagressivlik | 0,480* | 0,459* | 0,140 | 0,524** |
| Psixologik jihatdan ezilish | 0,277 | 0,473* | 0,235 | 0,545* |
| Salga jahli chiqadigan | 0,480* | 0,464* | 0,547** | 0,175 |
| Yuqori agressivlik va autoagressivlik | 0,188 | 0,465* | 0,311 | 0,479* |
| Ta'sirlanuvchanlik | 0,285 | 0,515** | 0,473* | 0,453* |
| Ochiqlik-oshkorlik | 0,506** | 0,202 | 0,549** | 0,163 |
| O'zgaruvchanlik | 0,176 | 0,536** | 0,261 | 0,457* |

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Berilgan natijalardan jahildorlik shkalasi bilan agressivlik va autoagressivlik, o'smirlarning emotsiyal holatlarda o'zini nazorat qilishi va faoliyatda o'zini nazorat qilish shkalalari, tashqi ta'sirlarsiz paydo bo'ladigan agressivlik va autoagressivlik shkalasi tajovuzkorlik, o'smirlarning emotsiyal holatlarda o'zini nazorat qilish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish shkalalari, psixologik jihatdan ezilish shkalasi bilan o'smirlarning emotsiyal holatlarda o'zini nazorat qilish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishi shkalalari, yuqori agressivlik va autoagressivlik shkalasi bilan, agressivlik va autoagressivlik, o'smirlarning emotsiyal holatlarda o'zini nazorat



qilish va faoliyatda o‘zini nazorat qilish shkalalari, yuqori agressivlik va autoagressivlik shkalasi bilan, o`smirlarning emotsiyal holatlarda o‘zini nazorat qilish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish shkalalari, ta’sirlanuvchanlik shkalasi bilan, o`smirlarning emotsiyal holatlarda o‘zini nazorat qilish, faoliyatda o‘zini nazorat qilish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish shkalalari, ochiqlik-oshkorlik shkalasi bilan, agressivlikva autoagressivlik va faoliyatda o‘zini nazorat qilish shkalalari, o‘zgaruvchanlik shkalasi bilan, o`smirlarning emotsiyal holatlarda o‘zini nazorat qilish shkalalari korrelyatsion bog‘lanishda ekani aniqlandi.

O‘z-o‘zini baholash jarayoni o`smirning agressiv xulq-atvorini hal qiluvchi determinant sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zini o‘zi baholash darajasi ichki majburiy bo‘lgan normativ me’yorlarini boshqarib, agressivlikni amalga oshirishga to’sqinlik qilishi mumkin. Agar o`smirni nohaq shaxsiyatiga tegib, haqoratlab, hujum qilib, to’sqinlik qilinsa (bu normativ daraja) u holda bu vaziyatda agressivlik subyektning qasos olish orqali o‘z qadr-qiyimatini tiklashiga yo‘naltirilib, amalga oshiriladi. Umuman, agressivlik asosida biz nafaqat o‘zimizni, balki atrofimizdagi insonlarni ham kayfiyatini balki ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatib, asablarini buzishimiz mumkindir. Shu sababli agressivlik asab buzuvchi holat sifatida e’tirof etiladi. Biz bu zo‘ravonliklarning barchasini destruktiv, jismoniy tajovuzkorlik yoki atayin boshqa birovga yoki obyektga zarar yetkazish maqsadida amalga oshirilgan harakat deb ta’riflasak bo‘ladi (1.1-jadval).

1.2-jadval

Tajovuzkorlik hissi va shaxs xususiyatlari metodikasi natijalarining o‘zaro aloqasi

| Shkalalar | Jismoniy tajovuz | Verbal tajovuz | Bilvosita tajovuz | Negativizm | Tajangilik | Shubhalanuvchanlik | Xatagarchilik | Ayadorlik |
|---|------------------|----------------|-------------------|-------------|-------------|--------------------|---------------|-------------|
| Jahildorlik | 0,447* | 0,161 | 0,252 | 0,511* * | 0,476* | 0,268 | 0,455* | 0,320 |
| Tashqi ta`sirlarsiz paydo bo`ladigan agressivlik va autoagressivlik | 0,486* | 0,457* | 0,249 | 0,451* | 0,490* | 0,257 | 0,644* * | 0,146 |
| Psixologik jihatdan ezelish | 0,174 | 0,246 | 0,462* | 0,586* * | 0,581* * | 0,425* | 0,588* * | 0,471* |
| Salga jahli chiqadigan | 0,452* | 0,464* | 0,293 | 0,574* * | 0,487* | 0,224 | 0,448* | 0,211 |
| Yuqori agressivlik va autoagressivlik | 0,586* * | 0,464* | 0,511* * | 0,277 | 0,184 | 0,470* | 0,468* | 0,541* * |
| Ta’sirlanuvchanlik | 0,227 | 0,515* * | 0,266 | 0,547* * | 0,561* * | 0,230 | 0,481* | 0,486* |
| Ochiqlik-oshkorlik | 0,201 | 0,240 | 0,463* | 0,263 | 0,460* | 0,512* * | 0,164 | 0,208 |
| O‘zgaruvchanlik | 0,257 | 0,416* | 0,293 | 0,583* * | 0,438* | 0,508* * | 0,568* * | 0,462* |



Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

O'smirlarda agressivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarda agressivlik va autoagressivlik hissi va shaxs xususiyatlari so'rovnomalari quyidagi birliklarni jahildorlik shkalasi bilan, jismoniy tajovuz, negativizm, tajanglik va xafagarchilik shkalalari, tashqi ta'sirlarsiz paydo bo'ladigan agressivlik va autoagressivlik shkalasi bilan, jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, negativizm, tajanglik va xafagarchilik shkalalari, psixologik jihatdan ezilish shkalasi bilan, bilvosita tajovuz, negativizm, tajanglik, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik shkalasi, salga jahli chiqadigan bilan jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, negativizm, tajanglik va xafagarchilik shkalalari, yuqori agressivlik va autoagressivlik shkalasi bilan, jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, bilvosita tajovuz, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik shkalalari, ta'sirlanuvchanlik shkalasi bilan, verbal tajovuz, negativizm, tajanglik, xafagarchilik va aybdorlik shkalalari, ochiqlik-oshkorlik shkalasi bilan, bilvosita tajovuz, tajanglik va shubhalanuvchanlik shkalalari, ochiqlik-oshkorlik shkalasi bilan verbal tajovuz, negativizm, tajanglik, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik shkalalari aloqaga kirishgan.

Ochiq agressiv xulq-atvorda jabrlanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri ochiq hujum qilinishi, jismoniy zarba orqali zarar yetkazish kuzatiladi. Yashirin tajovuzkorlik esa gap-so'zlar, mish-mishlar, aldov va yolg'onlar asosida ifodalanadi. Ko'p hollarda ochiq tajovuzkorlik yosh o'tishi bilan kuchsizlanib borsa, yashirin tajovuzkorlik esa aksincha kuchayib boradi.

Agressiv xulq-atvor paydo bo'lishida ko'pgina omillar ishtirok etadi, shu bilan birga individual va yosh xususiyatlari, tashqi jismoniy va ijtimoiy sharoitlar ham qatnashadi. Masalan, agressivlikni quyidagi sharoitlar ta'minlashi mumkin: shovqin, jazirama issiq, tiqislik, ekologik muammolar, ob-havo sharoitlari va hokazo. Ushbu muammoning ko'pgina tadqiqotchilarining fikricha, shaxsning agressiv xulq-atvorining shakllanishida asosiy rolni bevosita uning atrofidagi ijtimoiy muhit o'ynaydi.

Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana o'smir shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil- o'smir orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, o'smir shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi.

XULOSA

O'smirlarda agressivlik va autoagressivlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlariga, agressiv xulq-atvori, shaxs xususiyatlari va emotsiyal holatlarda o'zini nazorat qilishi kabi psixologik omillar ta'sir qiladi. O'smirlarda agressiv va autoagressiv holatlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlarini ta'minlovchi



sifatlar: emotsional holatlarda o‘zini nazorat qila olish, optimistik kayfiyat, muloqotmandlik, empatiya, kirishimlilik va nazoratning kuchliligi kabi psixologik omillar agresivlikning oldini olishda asosiy faktorlarni tashkil etganligi aniqlandi. Muammoning fanlararo qisqacha tahlili shuni ko’rsatadiki, bu yerda taxminlarning tarqalishi mavjud, turli tarixiy davrlar va turli xalqlar orasida turlichadir. Biz autoagressiv xulq-atvor demografik jihatdan barqaror hodisa bo’lib, asosan individual ildizlarga ega ekanligini ko’ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Басс А. Концепция агрессии / враждебности: учебник / А. Басс, А. Дарки. – Екатеринбург, 2013. – 86 с.

Ф.Ф. Ганжиев. Особенности психологической защиты человека в экстремальной ситуации. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.

Bandura A. Social cognitive theory of mass communication// Bryant J., Zillman D. Media effects: advances and research. Mahwah, N.J.: Lawrence Erlbaum, 2002. P.121 - 153.

Зеер Э.Ф., Сималюк Э. Э Кризисы профессионального становления личности // Психол. журн. 1997. Т.18. №6.35 - 44 с.

Кяэрст М. Рассмотрение компетентности в психологической концепции совершенствования управления производственной организацией // Актуальные проблемы труда: сб. науч. тр. – Тарту, 1980. – С. 45-67.

Стратегия Европейского Союза в области образования и профессиональной подготовки (ET2020) // Гаськов В.В. Согласование стратегических целей и индикаторов профессиональной подготовки кадров с международными рекомендациями и опытом (Обзорный технический доклад). – М., 2018. – С.11-21.

